

**FAN, TA'LIM,
TEXNOLOGIYA VA
ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA
RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI NOMLI IV ILMIY-
AMALIY ONLAYN
KONFERENSIYA**

KONFERENSIYA YO'NALISHLARI:

- **FAN VA TA'LIM
INTEGRATSIYASI**
- **TEXNOLOGIYALAR VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASI**
- **IQTISODIY RIVOJLANISH VA
INNOVATSION EKOSISTEMALAR**
- **ISHLAB CHIQARISH VA
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA**
- **KADRLAR TAYYORLASH VA
INNOVATSIYALARNI
AMALIYOTGA JORIY ETISH**
- **BARQAROR RIVOJLANISH VA
EKOLOGIK INNOVATSIYALAR**

**ILMIY KONFERENSIYA
2025-YIL**



Research Science and
Innovation House



FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

« FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI » ilmiy
konferensiyasi:

31.07.2025-yil.

Ushbu to'plamda « FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB
CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI » ilmiy konferensiyasi 2025-yil 2-soni 6-qismiga qabul
qilingan maqolalar nashr etilgan.

Konferensiya tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami
biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida
indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga
tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar
sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil
izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab
o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar
foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy
maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan
iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



Research Science and
Innovation House

“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE”

MCHJ

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Choriyevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrası mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib:

Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi:

Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Choriyevich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti dekani, texnika fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdulkarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6
O'ZBEK MILLIY XARAKTERI LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK
PRIZMASIDA**

*Y.N.Xodjiyev
GulDU tadqiqotchisi, f.f.f.d.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek milliy xarakteri lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Milliy xarakterning lingvokognitiv va madaniy semantik xususiyatlari, xalq ongidagi qadriyatlarining tilda ifodalanish mexanizmlari ochib berilgan. Maqolada lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika va antropotsentrik yondashuv asosida tadqiqot o'tkazilgan bo'lib, milliy xarakterni o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek milliy xarakteri, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika, antropotsentrik lingvistika, milliy qadriyatlar, frazeologizmlar, maqollar, turg'un birliklar, til va madaniyat, konsept.

Har bir xalqning milliy xarakteri uning tarixiy xotirasi, ma'naviy hayoti va madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, umummilliy qadriyatlarining yorqin ifodasidir. Milliy xarakter atamasi jahon tilshunosligi va madaniyatshunosligida keng tarqalgan bo'lib, u xalq ongida mustahkamlashgan, avloddan-avlodga o'tadigan, xalqning hayot tarzida o'z aksini topadigan xulq-atvor namunasi hisoblanadi. Bu tushunchaga nisbatan fanda turli qarashlar mavjud. Xususan, A.Y.Arhipov uni "millatning tarixiy rivojlanishida shakllangan va xalqning umumiy xulq-atvor qoliplarida, madaniyat va tilda namoyon bo'ladigan psixomental xususiyatlar majmui"¹ sifatida ta'riflansa, M.Quronov unga "bir madaniyat, ma'naviyatga mansub ko'pchilik odamlarga xos sifatlar majmuyi. U xalq tarixida muayyan vazifani ham bajaradi. U – millatning har bir a'zosi niyatini, harakatini, iqtidorini millat manfaatlariga yo'naltirishning ma'naviy manbayidir. Qisqacha qilib aytsak, milliy xarakter – milliy quvvatni paydo qiluvchi, saqlovchi va millat taraqqiyotiga yo'naltiruvchi kuch"² deya ta'rif beradi.

Milliy xarakterni o'rganish zarurati nafaqat madaniy o'zlikni anglashga, balki tilning inson hayotidagi chuqur semiotik vazifalarini anglashga ham borib taqaladi. Chunki til – bu xalqning "ma'naviy kodi", milliy xarakter esa ushbu kodda namoyon bo'luvchi jarayondir. Zamonaviy antropotsentrik lingvistikada til inson va jamiyat ongining markazida turadigan holat sifatida qaraladi. Milliy xarakter ana shu markaziy

¹ Архипов А.Ю. Национальный характер как лингвокультурологический феномен: специфика и методы исследования // Вестник Челябинского государственного университета. 2012. – № 8 (262). – С. 33-36.

² Куронов М. Ўзбек характери ва миллий ғоя. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 14.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-6

nuqtada shakllanuvchi ko'p qirrali tuzilma bo'lib, u faqat tilda emas, balki madaniy urf-odatlar, dunyoqarash, mentalitetda ham o'z ifodasini topadi.

Lingvomadaniyatshunoslikda milliy xarakter madaniy semantika va lingvokognitiv struktura sifatida o'rganiladi. Bu fanning vazifasi – til orqali madaniy ma'nolarni ochish, xalq dunyoqarashini tildagi ifodalar asosida tahlil qilishdir. Milliy xarakter esa bunday tahlil uchun ayni munosib ob'ekt hisoblanadi. Shu jihatdan, tilda shakllangan milliy xarakter elementlarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, etnologiya va kognitiv psixologiya sohalarida ham dolzarbdir.

O'zbek xalqining milliy xarakteri yuksak axloqiy qadriyatlar, mehr-shafqat, bolajonlik, mehmondo'stlik, sabr-toqat, andisha va oriyat kabi ko'plab konseptlarni o'z ichiga oladi. Bu xususiyatlar til vositasida jonli namoyon bo'ladi. Milliy xarakter tilning turli sathlarida o'z aksini topadi: leksika, frazeologiya, grammatika va nutq qoliplari orqali xalq ongidagi qadriyatlar avloddan-avlodga o'tadi. Bu borada F.Usmonovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Qadriyatlar ongdagi har qanday mavhumlik qatori voqelanish ehtiyojiga ega. Ushbu ehtiyojni inson tasarrufida bo'lgan til o'z vositalari orqali qondiradi va qadriyatlarni voqelantiradi. Ushbu voqelanish jarayoni milliy interpretatsiyasiz kechmaydi, albatta. Chunki olamning lisoniy manzarasi etnomadaniy jamoaning lingvokreativ faoliyati natijasi bo'lib, har bir jamoa olamni belgilashning (lisoniy belgi – til nazarda tutilmoqda – Y.X.) o'ziga xos vositalariga ega, shuningdek, har bir jamoada olamni idrok etishning asrlar davomida shakllangan tizimi mavjud”³. Keltirilgan ta'rif milliy qadriyatlarning tildan boshqa ifodalanish shakllari mavjudligini inkor etmaydi, ular sirasida tilning universal vosita ekaniga urg'u beradi.

Tildagi frazeologizmlar, maqollar va qanotli iboralar milliy xarakterning uzviy bir qismi bo'lib, xalq hayotining turli sohalarida shakllangan ma'naviy tajribaning “qaymog'i”dir. Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodida “birlikda baraka bor”, “sabr qilgan zafar topar”, “bir yoqadan bosh chiqarmoq”, “Bir mayizni qirq bo'lib yemoq” kabi maqol va iboralar orqali jamoaviylik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, qarindoshchilik, murosa va hokazo konseptlar ifoda etiladi. Bu kabi birliklar tilning turg'un birliklari bo'lib, xalq mentaliteti va hayot tarzi xususida xulosalar berish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy xarakterni tadqiq etishda tilning grammatik va morfologik vositalari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, o'zbek tilida kichraytirish va erkalash affikslari (-cha, -jon, -gina) orqali bolajonlik, muhabbat, yaqinlik kabi konseptlar ifoda topadi.

³ Usmanov F. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. dan. dok. diss. – Andijon, 2024. – B. 82.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6**

Shuningdek, ko'plik qo'shimchalari va hurmat ifodalovchi boshqa vositalar jamoaviylik va ehtiromni ko'rsatuvchi lingvokulturemalar sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotlari milliy xarakterni o'rganishda quyidagi muhim usullarni qo'llashni talab qiladi: definitson tahlil, kognitiv tahlil, komponent tahlil, assotsiativ tahlil, kontekstual tahlil va qiyosiy tahlil. Xususan, kognitiv tahlil orqali xalq ongidagi konseptlar strukturasi ochib beriladi, kontekstual tahlil esa ularning qo'llanish mexanizmini aniqlashga yordam beradi.

Bu sohada tadqiqot olib borayotgan olimlar ta'kidlashicha, tildagi frazeologizmlar va maqollar xalqning ijtimoiy tafakkur shakllari orqali shakllangan umumiy dunyoqarashining lingvistik kodidir. Masalan, N.D.Arutyunova fikricha, "Frazeologizmlar xalq ongida shakllangan hayot tajribasining qaymog'idir, ularda xalqning umumiy axloqiy va madaniy qarashlari to'plangan"⁴.

Masalan, I.Jamoliddinova *belida belbog'i bor* iborasidagi qat'iyatning aks etishini quyidagicha talqin qiladi: "*Belida belbog'i bor* frazemasida... o'zbek yigitlariga xos bo'lgan tuturuqni, qat'iyatni o'zida aks ettiradi. Mazkur frazema faqat erkaklarga nisbatan qo'llanib, "o'z so'zida, fikrida qat'iy tura oladigan" semantikani ifodalaydi. Ma'lumki, belbog' o'zbek lingvomadaniyatida madaniy kodga aylanib qolgan realiyalardandir. Xalqimizda o'g'il farzandining beliga juda kichikligidan belbog' bog'laydilar. Bu bilan erkak kishi el-yurt koriga kamarbasta, oilasi, farzandlari uchun mas'ul ekanligi ifoda etiladi. "Erkak kishining belida belbog'i bo'lsin", degan ibora unga el-yurt ravnaqi, oila faravonligini ta'minlash, farzandlar tarbiyasiga sobit turish vazifasi yuklanganidan dalolat beradi"⁵. Y.Nurmuhamedov esa bu xususda quyidagi mulohazani bildiradi: "Belida belbog'i bor so'z birikmasida signifikat fikr predmetini denotativ aspektida ifodalaganda 'tananing vertikal yo'nalishiga nisbatan o'rta qismiga belbog' o'ralgan erkak kishi'ni anglatsa, konnotativ aspektida 'jo'mard', 'lafz' kabi ijobiy hislatli kishi'ni ifodalaydi. Birikmadagi 'belbog'' komponenti o'ziga xos milliy madaniy belgi tashuvchi funksiyasini bajaradi"⁶. Tilshunos olim Y.Odilov aytganidek, "Azaldan o'zbek erkaklari to'n va yaktak ustidan belbog' bog'lagan, shuning uchunmi, mard va lafzi halol yigitlar belida belbog'i bor deb sifatlangan"⁷. Shunday mazmunni o'zbek badiiy matni ham ko'rsatadi: *Endi sizga o'n ikki vassali uy qurib beramiz. Odamlarni hasharga aytib qo'ydim. Belida belbog'i bori kelaveradi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi). Shu va shu kabi matnlarda "erkak kishining belida belbog'i bo'lsin"

⁴ Арутюнова Н.Д. Логика и поэтика фразеологизмов // Логический анализ языка. Культурные концепты. – М., 1991. С. 137-147.

⁵ Jamoliddinova I. O'zbek tilida "qat'iyat" konseptining ifodalanishi. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2025. – B. 74-75.

⁶ Nurmuhamedov Y. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. – Samarqand, 2021. – B. 39.

⁷ Одиллов Ё. Ўзбек тили ва унинг этномаданий занжилиги // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – №2. – Б. 14.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6**

ma'nosidagi qo'llanishlar ko'p uchraydi; u erkak so'zining sinonimi darajasiga ko'tariladi.

O'zbek milliy xarakter qirralaridan biri jamoaviylikdir. Ya'ni millat kishilarining hayoti atrofdagi kishilar jamoasi bilan uzviy bog'liqdir. Bu jamoaviy turmush tarzi yaqin qarindosh-urug'chilik munosabatlari, bir uyda bir nechta avlod vakillarining birga yashashi, mahalla, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlarida, hashar, to'y-hasham, aza marosimlarining keng jamoalarda nishonlanishi bilan belgilanadi. Jamoaviylik xarakteri natijasida ham turli frazeologik birliklar shakllangan. Mazkur birliklarga "o'rta", "bir" komponentli frazeologik birliklarni misol qilish mumkin: *o'rtaga olmoq, o'rtaga tashlamoq, o'rtaga tushmoq, o'rtaga to'kmoq, o'rtaga qo'ymoq; bir jon-bir tan bo'lmoq; bir yoqadan bosh chiqarmoq; bir mayizni teng bo'lib yemoq, bir og'izdan; bir ovozdan; bosh(lari)ni bir joyga qovushtirmoq* kabi. Jamoadan ajralgan kishilarga doim salbiy munosabatda bo'lingan va bu munosabat *yakka moxov bo'lmoq, yakka moxov bo'lib qolmoq* kabi frazemalar shakllanishiga sabab bo'lgan.

O'zbek xalqining mehmondo'stlik xarakteri turli xil barqaror strukturalar orqali namoyon bo'lishi ma'lum. Mana shunday frazemalardan biri *o'tqazgani joy topolmaslikdir* (o'tqazishga joy topolmaslik). Ma'lumki, o'zbek madaniyatida mehmonlar uchun maxsus xona, ko'rpachalar, dasturxon tayyor turadi. Kelgan mehmon "atoyi Xudo" sanalib uydagi eng yaxshi xonaga, eng yaxshi joyga o'tkaziladi. Mana shu jarayon frazemalashganligi ushbu ibora orqali namoyon bo'lmoqda. Mehmondo'st bo'lmaganlar esa qattiq qoralanadi: *bo'sag'asi odam ko'rmagan. Mehmon o'zagidan mehmondor, mehmondorlik, mehmondorchilik, mehmondo'st, mehmondo'stlik, mehmonnavoz* kabi so'zlar yasalgan bo'lib, ularning barchasi ijobiy konnotatsiyaga ega. Mehmondo'stlik, ya'ni mehmondo'st ekanlik "mehmonni, mehmon kutishni, mehmon chaqirishni yaxshi ko'radigan, mehmonsevar" (O'TIL, II, 586) bo'lishni taqozo etadi. Bunda ta'rifdagi "yaxshi ko'radigan" sifati va keyingi so'zlarning tarkibidagi "-sevar" va "-do'st" komponentlari aksiologik marker maqomida bo'la oladi. Zero, do'st – "ahillik, totuvlik munosabati bilan bog'langan" etimologiyasiga ega.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, milliy xarakterni tadqiq etish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. U xalqlarning o'zlik ongini kuchaytirish, til siyosatida milliy qadriyatlarni himoya qilish, milliy o'zlikni targ'ib qilish kabi vazifalarga xizmat qiladi. Shuningdek, bu tadqiqotlar yosh avlodni tarbiyalash, til o'rgatish va madaniyatlararo muloqotda madaniy farqlarni inobatga olish uchun muhim manba hisoblanadi. O'zbek milliy xarakteri lingvomadaniyatshunoslik prizmasida tahlil etilishi xalqning ma'naviy dunyoqarashi

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6**

va til madaniyatini anglashda beqiyos ilmiy qimmatga egadir. Milliy xarakter tildagi frazeologizmlar, maqollar, leksik va grammatik vositalarda o'zining barqaror izini qoldirgan, xalq tafakkurining lingvistik ifodasi sifatida xizmat qiluvchi muhim madaniy fenomendir. Bunday tadqiqotlar nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarbiya va ta'lim sohalarida ham o'z ahamiyatini topadi.

Adabiyotlar:

1. Архипов, А.Ю. Национальный характер как лингвокультурологический феномен: специфика и методы исследования // Вестник Челябинского государственного университета. 2012. – № 8 (262). – С. 33-36.
2. Куронов, М. Ўзбек характери ва миллий ғоя. – Тошкент: Маънавият, 2005.
3. Usmanov, F. (2024). O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. d-ri... diss. Andijon–2024. – B. 13.
4. Арутюнова, Н.Д. Логика и поэтика фразеологизмов // Логический анализ языка. Культурные концепты. – М., 1991. – С. 137-147.
5. Jamoliddinova, I. O'zbek tilida "qat'iyat" konseptining ifodalanishi. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2025.
6. Nurmuhamedov, Y. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. – Samarqand, 2021.
7. Одилов, Ё. Ўзбек тили ва унинг этномаданий занжилиги // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – №2.
8. Маслова, В. А., & Усманов, Ф. Ф. (2023). Взаимодействие культуры и языка в гуманитарных исследованиях. URL: <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2023/12/maslova-v.-usmonov-f.-literature-and-culture-5.pdf>

Khujaeva Guljahon

A.Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada turk adabiyotining yirik vakili Tariq Bug'ra hayoti va ijodiy merosi ilmiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Yozuvchining asarlarida qishloq aholisi hayoti, inson ruhiyatining murakkab jihatlari, adolat, jasorat, e'tiqod va aql kabi abadiy qadriyatlar tasviri alohida urg'u bilan yoritilgan. Tariq Bug'raning badiiy yondashuvi, ayniqsa, tarixiy realizm, ichki monologlar, syujet dinamizmi va psixologik chuqurlik orqali ajralib turadi. Shuningdek, uning ijtimoiy va falsafiy qarashlari zamonaviy turk romanistikasi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: *Tariq Bug'ra, turk adabiyoti, tarixiy roman, badiiy mahorat, ichki dunyo, falsafiy qarashlar, psixologik tahlil, qadriyatlar, realizm.*

Abstract

This article explores the life and literary legacy of prominent Turkish author Tarik Buğra from a scholarly perspective. It highlights his unique portrayal of rural life, complex psychological depth, and the representation of universal values such as justice, courage, faith, and intellect. Buğra's artistic style is marked by historical realism, inner monologue, narrative dynamism, and deep psychological insight. Furthermore, his socio-philosophical reflections contribute significantly to the development of contemporary Turkish novel writing.

Keywords: *Tarik Buğra, Turkish literature, historical novel, artistic mastery, inner world, philosophical views, psychological analysis, values, realism*

Turk adabiyotida roman janri ijodkorning badiiy mahorati bilan uzviy bog'liq bo'lib, aynan shu mahorat asarning estetik va g'oyaviy qiymatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Har bir yirik romannavis o'ziga xos uslub va badiiy tasvir vositalari orqali adabiyot tarixida muhim iz qoldirgan. Yozuvchining badiiy mahorati faqat syujet qurilishi yoki obraz yaratish bilan emas, balki insoniyat hayotining murakkab jihatlari chuqur badiiy talqin etish san'ati bilan belgilanadi. Shu

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6**

bois, roman janridagi badiiy mahoratni o'rganish, uning uslubiy va nazariy asoslarini tahlil qilish adabiyotshunoslik fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda¹.

Turk adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Tariq Bug'ra o'zining yuksak badiiy mahorati bilan ajralib turadi. Uning romanlari turk tarixining muhim jarayonlarini badiiy yoritish, inson ruhiy olamining ichki qatlamlarini ochib berish hamda o'ziga xos falsafiy mushohadalar bilan boyitilganligi bilan alohida e'tiborga loyiqdir. Bug'ra ijodida tarixiy realizm, ichki monologdan samarali foydalanish va syujet dinamizmining kuchli ifodasi muhim poetik xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Adibning mashhur «Kichik Og'a» romani tarixiy voqealarni aks ettirishda o'ziga xos poetik-estetik uslub bilan ajralib turadi. Asarda qahramonlarning ruhiy olami chuqur tahlil etilib, ularning jamiyatdagi o'rni badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, romanda turk jamiyatidagi ijtimoiy o'zgarishlar, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyatlar nozik badiiy vositalar bilan yoritilgan. Tariq Bug'raning tarixiy roman yaratishdagi mahorati faqat voqealarni badiiy tasvirlash bilangina cheklanmay, balki tarixiy voqelikni inson ruhiyati va davr ideallari bilan uyg'unlashtira olish qobiliyatida ham yaqqol namoyon bo'ladi. U tarixiy jarayonlarni sodda voqeabop rivoyat sifatida emas, balki ularni chuqur tahlil etgan holda, ularning insoniyat tafakkuri va jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirini ochib berishga intiladi. Bu yondashuv Bug'ra asarlarida qahramonlarning ichki kechinmalari va ma'naviy dunyosining teran talqin etilishiga xizmat qiladi. Shu bois, yozuvchining tarixiy romanlarida voqealar rivojidan tashqari inson hayotidagi ma'naviy tajriba, axloqiy ideallar va ruhiy o'zgarishlar (metamorfozalar) ham keng va ta'sirchan ifoda topgan. Ushbu jihatlar bir nechta muhim tamoyillarni yoritib beradi. Avvalo, qahramonlar jasorati ularning tarixiy va ma'naviy ildizlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu holat ularning ichki ruhiy jarayonlarining badiiy natijasi sifatida tasvirlanadi². Tariq Bug'ra o'z tarixiy romanlarida jasorat konsepsiyasini chuqur psixologik va ma'naviy kontekstda ochib beradi. U jasoratni tashqi voqelik doirasida emas, balki obrazlarning ichki ruhiy olami, iroda kuchi va ma'naviy saboti orqali talqin etadi. Shu sababli, uning qahramonlari ko'pincha jismoniy kuch emas, balki axloqiy barqarorlik va ruhiy qarorlar bilan ajralib turadi. Bu yondashuv tarixiy obrazlarning jonli va hayotiy chiqishiga imkon yaratadi.

¹ Zeynep Sare Dinçkal, A Study on Epic and Mythological Elements in Tarık Buğra's Novel "Osmanjik", Sanal Türkoloji Araştırmaları Dergisi, Volume 9, Issue 1, 2024, pp. 39–51.

² Ünüvar S. The Relationship between Anatolia and the Idea of Anatolianism in Tarık Buğra's Novels, Presented at "Hatırlayıp Yeniden Bulmak, Tarık Buğra 100 Yaşında" Symposium, Istanbul, 2018, pp. 397–410.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-6

Shuningdek, Bug'ra obrazlarining intellektual salohiyatiga alohida urg'u beradi. Yozuvchi tarixiy shaxslarning tafakkur doirasi, murakkab ijtimoiy vaziyatlarda oqilona pozitsiya egallay olishlari, qaror qabul qilishdagi aqliy yetukliklarini sinchkovlik bilan yoritadi. Natijada, uning qahramonlari nafaqat jasur sardorlar, balki o'z zamonasining fikr yurituvchi, jamiyatga yo'nalish beruvchi, intellektual peshvolari sifatida tasvirlanadi. Bundan tashqari, adolat va e'tiqod kabi g'oyaviy tushunchalar Bug'ra romanlarining asosiy g'oyaviy tayanchlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Uning asarlarida qahramonlar harakatlari axloqiy mezonlarga tayanadi; ular uchun haqiqat va adolat yo'lida kurashish shaxsiy ichki kechinmalar va ruhiy iztiroblar bilan bog'liq jarayondir. Bug'ra bu jihatlarni o'ziga xos badiiy vositalar bilan talqin etib, tarixiy obrazlar ruhiyatini chuqur tahlil qiladi va ularni zamonaviy o'quvchi uchun ham dolzarb bo'lgan ma'naviy mezonlar asosida qayta tiklaydi.

Tariq Bug'ra tarixiy voqealarni oddiy badiiy tasvir doirasida emas, balki ular orqali insoniyat hayotida muhim o'rin tutuvchi abadiy qadriyatlarni yoritish vositasi sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv yozuvchining asarlariga chuqur falsafiy qatlam bag'ishlab, badiiyat bilan ma'rifat uyg'unligini yuzaga keltiradi. Natijada, tarixiy material badiiy-estetik mazmundan tashqari, keng ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etadi. To'rtinchidan, Bug'ra inson ruhiyatining murakkab jihatlarni ochishda g'azab va hukm singari holatlarni psixologik aniqlik bilan tahlil etadi. Xususan, g'azab tuyg'usi uning asarlarida faqat ziddiyat yoki to'qnashuv belgisi sifatida emas, balki chuqur ichki ruhiy o'zgarish, shaxsiy inqilob jarayonining boshlanishi sifatida talqin etiladi. Bu orqali yozuvchi o'z obrazlarini yanada hayotiy, real va psixologik jihatdan asosli qilib tasvirlaydi. Shuningdek, hukmning qat'iyligi Bug'ra asarlarida ikki yoqlama talqinga ega: u bir tomondan adolatning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat timsoli sifatida ko'riladi. Yozuvchining qahramonlari qaror qabul qilish jarayonida ularning oqibatlarini chuqur anglaydilar; bu esa ularning shaxsiy taraqqiyoti va ijtimoiy hayotidagi burilishlarni yanada asosli va chuqur psixologik kontekstda ifodalash imkonini beradi.

Tariq Bug'ra o'zining "Afsus yoshligim", "Qora qahrabo", "Fir'avnning imoni" kabi mashhur asarlari bilan keng tanilgan bo'lsa-da, uning boshqa romanlarida, ayniqsa qishloq aholisi hayoti va ularning duch kelgan ijtimoiy-madaniy muammolarni tasvirlash uslubi turk zamonaviy adabiyoti vakillaridan sezilarli darajada farqlanadi. Bug'ra o'z ijodida insoniyatning kundalik hayoti, uning murakkab va ko'p qatlamli mohiyati, noaniqliklar va ichki ziddiyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratgan yozuvchi sifatida ajralib turadi. Adib 1918-yilda Turkiyaning Oqshahar (Akşehir) shahrida tug'ilgan. Boshlang'ich va o'rta ma'lumotni ham shu shaharda olgan. 1936-

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6**

yilda Konya shahridagi o'rta maktabni tamomlagan. U Istanbulda bir muddat tibbiyot va huquq fakultetlarida tahsil olgan bo'lsa-da, doimiy va tizimli ta'lim jarayonida qatnashmagan. Keyinchalik Istanbul universitetining Adabiyot fakulteti, Turk tili va adabiyoti bo'limiga o'qishga kirgan, biroq harbiy xizmatga chaqirilgani sababli o'qishni yakunlamagan. Harbiy xizmatdan qaytgach, ta'limni davom ettirgan bo'lsa-da, hayotiy muammolar va moddiy-ma'naviy qiyinchiliklar uni oliy ta'limni to'liq yakunlashdan mahrum qilgan. Ijodiy faoliyatining dastlabki bosqichlarida u 1947-yilda Oqshaharda "Nasriddin Afandi" nomli nashrni, 1948-yilning yanvaridan fevraligacha Tal'at Tekin bilan hamkorlikda "Zaytun Shohi" nomli asarni nashr ettirgan. 1951-yilda "Istanbul haftaligi" jurnalini uch oy davomida nashr qilgan. 1963-yilda esa, Mumtoz Turxon va Errol Gung'ur bilan birgalikda "Yol" jurnalini chop etishda bosh-qo'shgan. Uning "Chinorosti" jurnalida 1948-yilda olti hikoyasi e'lon qilingan. Shuningdek, 1951-yildan boshlab "Okin", "Borluk", "Yangi dunyo", "Yuksel", "Istanbul", "Kichik jurnallar" va "Dost" kabi gazeta va jurnallarda faol ijodiy va jurnalistik faoliyat yuritgan³.

U o'z asarlarida har bir inson o'z mehnatiga mas'ul bo'lishi, ya'ni har bir kishi o'z oldidagi vazifani bajarishi kerakligini ta'kidlaydi. Tariq Bug'ra san'atkorning asosiy vazifasi san'at asari yaratish ekanligini va xalq ushbu asardan o'ziga kerakli narsalarni olishini ta'kidlagan. Shuningdek, u san'atkor jamiyatga foyda keltirishi kerak deb hisoblagan va uning yuksalishi uchun ilmiy xolislik va samimiyatni alohida e'tiborga olish zarurligini bildirgan⁴. Tanpinarning qayd etishicha, Tariq Bug'ra uslubga nisbatan talabchanligi bilan o'z avlodiga mansub safdoshlaridan farq qiladi.⁵ Tariq Bug'ra so'zlarni «chertib-chertib» tanlaydi, ortiqcha so'z sarflashdan qochadi. U tanlagan so'zlar turk tiliga mansub bo'lib, o'ylab topilgan emas. U turk tiliga katta e'tibor ko'rsatadi. Buni turli sanalarda chop etilgan til xususidagi maqolalari mazmunidan anglash mumkin. Turk tili jamiyatiga nisbatan bildirgan keskin tanqidlari ham mana shu hassosiyati samarasidir. Alemdar Yolchin Tariq Bug'ra hamda Kamol Tohirlarning ifoda usullarini solishtirib, «Tariq Bug'roning ifoda uslubi qamrovliroq va badiiy saviyasi yuksakroqdir. Shu sababli kitobxonga o'zgacha tot beradi» deydi⁶. Yozuvchi ijodida tarixiy mavzuga bag'ishlab yaratilgan «Usmon G'ozixon» romani (1983) alohida o'rin tutadi va uning badiiy-estetik qarashlari evolyutsiyasini o'rganishda muhim manba sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ushbu asar, avvalo, muallifning tarixiy hodisalarga, ularning badiiy talqiniga hamda milliy o'zlikni ifodalashdagi izlanishlariga bo'lgan munosabatini ochib beradi. Asosiy tahliliy

³ Ayvaz B. Çalışma Yazı: Tarık Buğra. İstanbul: Ötüken Yayınları, 1997. – S. 108-109.

⁴ Tuncer H. Tarık Buğra. Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, 1988.

⁵ Tanpınar A. H. Edebiyat Hakkında Makaleler. İstanbul: Dergah Yayınları, 2000. – S. 128.

⁶ Yalçın A. Siyasal ve Sosyal Değişmeler Açısından Cumhuriyet Dönemi Türk Romanı (1923-1946). İstanbul, 1991. – S.254.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6**

mulohazalarga o'tishdan avval, shuni alohida qayd etish lozimki, Usmoniylar imperiyasi hamda uning asoschilari haqida turk adabiyotida sermahsul va ijtimoiy-tarixiy mazmunga ega ko'plab badiiy asarlar yaratilgan. Jumladan, zamonaviy turk tarixiy roman janrining salmoqli vakillaridan biri bo'lgan iste'dodli yozuvchi Yavuz Bahodiro'g'lining «Usmon G'ozini» (1985), «Orxon G'ozini» (1987), «Sulton Sulaymon Qonuniy» (1988) kabi romanlari bevosita Usmoniylar tarixiga bag'ishlangan bo'lib, ular orqali muallif tarixiy shaxslar va davr ruhiyatini chuqur badiiy ifodalashga erishgan. Shu nuqtayi nazardan, muayyan adibning tarixiy romanchilikdagi o'rni va ahamiyatini belgilash uchun, avvalo, uning ijodida qanday tarixiy yondashuvlar, badiiy tafakkur uslublari, obrazlar tizimi hamda tarixiy haqiqatga munosabat aks etganini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tarixiy roman janrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan voqelikni badiiy umumlashtirish orqali milliy ong va tarixiy xotirani shakllantirish jarayonidagi roli inobatga olinsa, yozuvchining ushbu jarayonga qo'shgan hissasi tahliliy yondashuv orqali ochib berilishi lozim. Shunday savol tug'iladi: tarixiy roman janrida faoliyat yuritgan va turk adabiy maktabida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan muallifning ijodida aynan qanday omillar, uslublar va tarixiy-badiiy qarashlar ustuvorlik kasb etgan? Bu borada, tadqiqot obyektimiz bo'lib xizmat qilayotgan «Usmon G'ozixon» romanining tahlili asosida muallifning tarixiy tafakkuri, obraz yaratish mahorati hamda tarixiy faktlarga bo'lgan munosabatini ko'rsatish orqali ushbu savollarga ilmiy asoslangan javob topish mumkin. «Usmon G'ozixon» romani nafaqat yozuvchining tarixiy roman janriga bo'lgan qiziqishini, balki uning milliy tarixni badiiy aks ettirishga nisbatan yuksak mas'uliyatini ham yaqqol namoyon etadi. Asar orqali adib o'z o'quvchisiga tarixni faqat faktlar majmuasi sifatida emas, balki badiiy-estetik va ma'naviy qadriyatlar manbai sifatida ko'rsatishga intilgan. Usmon G'ozixon murakkab va ziddiyatlarga boy tarixiy bir davrda yashaganiga qaramay, parokanda holatga tushib qolgan yurtdagi siyosiy va ijtimoiy tartibsizliklarga barham berib, mustahkam poydevorga ega bo'lgan qudratli davlat asoschisi sifatida tarix sahnasiga chiqqan yirik shaxsiyatdir. U o'z faoliyati orqali turk xalqining tarixida chuqur iz qoldirib, yurt ravnaqi, ilm-fan taraqqiyoti va tamaddun yuksalishi uchun zarur bo'lgan tarixiy shart-sharoitlarni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Tarixiy jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Usmon G'ozixon shaxsida yurtga sadoqat, davlat barqarorligini mustahkamlash, uning sarhadlarini himoya qilish, siyosiy qudratni oshirish, do'stlarga sadoqat va dushmanlarga nisbatan qat'iylik, so'zga sobitlik, poklik, oila va el-yurtga mehr kabi yuksak axloqiy fazilatlar mujassam bo'lgan. Asarda tasvirlangan bu jihatlar o'quvchi qalbiga chuqur kirib borishi, uning tarixiy ongini uyg'otishi va badiiy-estetik zavq bag'ishlashi uchun muallif ushbu fazilatlarini holislik bilan yoritishga alohida e'tibor qaratgan. Yurtboshining hayoti va

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6**

faoliyatini haqqoniy, adolatli yoritish — bu tarixiy roman muallifi zimmasidagi muqaddas burchdir. Ayni shu sababli, yozuvchi milliy manfaatlar va tarixiy haqiqat nuqtayi nazaridan yondashib, Usmon G'ozixonning hayot yo'lini nafaqat tarixiy faktlar asosida, balki badiiy tasvir orqali chuqur ochib berishga intilgan⁷. Shubhasiz, yozuvchi Usmon G'ozixon davri va shaxsiyati bilan bog'liq tarixiy manbalar — solnomalar, tarixiy asarlar va arxiv hujjatlarini puxta o'rganishga harakat qilgan. Biroq uning oldidagi asosiy vazifa shunchaki tarixiy voqealar ketma-ketligini bayon qilish emas, balki Usmon G'ozixonning ruhiy-ma'naviy qiyofasini yaratish, ya'ni uning ichki dunyosini, shaxsiy motivatsiyalarini, qarorlaridagi murakkabliklarni chuqur badiiy tafakkur asosida ochib berishdan iborat edi. Romanda yozuvchi Usmon G'ozixonning umr yo'li orqali nafaqat buyuk bir tarixiy shaxs obrazini yaratishga, balki ushbu shaxs mansub bo'lgan xalqning aql-zakovat darajasi, ma'naviy salohiyati va ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ham ifoda etishga intiladi. Bu yerda G'ozixon asos solgan salatanat qudratining ildizlari adolat tamoyillariga asoslangan boshqaruv modelida ko'riladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zeynep Sare Dinçkal, A Study on Epic and Mythological Elements in Tarık Buğra's Novel "Osmanjık", Sanal Türkoloji Araştırmaları Dergisi, Volume 9, Issue 1, 2024, pp. 39–51.
2. Bulut Y. Tarık Buğra's Novelism, Doctoral Thesis, Ankara University, Institute of Social Sciences, 2014.
3. Ünüvar S. The Relationship between Anatolia and the Idea of Anatolianism in Tarık Buğra's Novels, Presented at "Hatırlayıp Yeniden Bulmak, Tarık Buğra 100 Yaşında" Symposium, Istanbul, 2018, pp. 397–410.
4. Hüseyin Çil. Reflections of Conservatism in Tarık Buğra's Novels, Muhafazakar Düşünce Dergisi, Volume 10, Issue 37, 2013, pp. 113–139.
5. Ayvaz B. Çalışma Yazı: Tarık Buğra. İstanbul: Ötükan Yayınları, 1997. – S. 108-109.
6. Tuncer H. Tarık Buğra. Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları, 1988.
7. Tanpınar A. H. Edebiyat Hakkında Makaleler. İstanbul: Dergah Yayınları, 2000. – S. 128.
8. Yalçın A. Siyasal ve Sosyal Değişmeler Açısından Cumhuriyet Dönemi Türk Romanı (1923-1946). İstanbul, 1991. – S.254.
9. Karabulut M. Conflicting Elements in Tarık Buğra's Novel "Kichik og'a", Dicle Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, Issue 22, 2019, pp. 12–19.

⁷ Karabulut M. Conflicting Elements in Tarık Buğra's Novel "Kichik og'a", Dicle Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, Issue 22, 2019, pp. 12–19.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6
OMON MATJON SHE'RIYATIDA AN'ANA VA YANGILIK**

Abdusharifova Sarvinoz

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr oxiri – XXI asr boshlarida o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri Omon Matjon ijodiga xos bo'lgan an'anaviylik va yangilik uyg'unligi tahlil etiladi. Shoirning badiiy-estetik qarashlari, milliy ruhga sodiqligi bilan bir qatorda zamonaviy obrazlar va poetik mushohadalarni muvaffaqiyatli uyg'unlashtira olgani ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Unda Omon Matjonning she'riy uslubi, folklor va mumtoz adabiyot an'alaridan ilhom olgan holda yangicha poetik olam yaratgani, zamonaviy o'zbek she'riyatida yangi bir badiiy bosqichga asos solgani ilmiy-nazariy yondashuv asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Omon Matjon, an'ana, yangilik, o'zbek she'riyati, timsollar, afsona, xalq og'zaki ijodi, poetik tafakkur, ramziylik, metafora, ruhiy kechinma, estetik uyg'unlik.

Kirish. Adabiyot – bu xalqning ruhiy olami, tarixiy xotirasi va estetik tafakkurining eng yuksak ifodasidir. Har bir davr adabiyoti o'z zamonining ruhi, orzulari va iztiroblarini aks ettiradi. Shu ma'noda, o'zbek adabiyoti ham har bir tarixiy bosqichda o'z oldiga yangi maqsadlar qo'yib, ma'naviy izlanishlar va badiiy yangilanishlar sari intilib kelgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida milliy she'riyatimizda kechgan o'zgarishlar, yangilanishlar jarayonida shoir Omon Matjonning tutgan o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. U an'anadan voz kechmagan holda uni yangicha poetik mushohada va badiiy tasvir vositalari orqali qayta talqin qildi, yangilik esa uning uchun avvalo, o'zligini anglash vositasi, milliylikni zamonaviylik bilan yo'g'rilgan shaklda ifodalash mezonini bo'ldi.

Omon Matjon o'zbek she'riyatiga 1970–80-yillarda kirib kelgan bo'lsa-da, u yaratgan poetik olam bugungi adabiyotimizda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Shoirning ilk to'plamlaridanoq an'anaviy she'riy shakllar, xalq og'zaki ijodi elementlari va sufiyona mushohadalar sezilarli bo'lib, ularning zamonaviy ruh bilan uyg'unlashtirilgani e'tiborni tortadi. Masalan, “Haqqush qichqirig'i” kitobi o'zbek afsonalari asosida yozilgan bo'lsa-da, undagi poetik talqin, timsollar tizimi, ichki falsafiy qatlamlar badiiy tafakkur yangiligidan darak beradi. Bu esa shoirning yangilikni tashqi shakldan emas, balki ichki mazmun, obrazlar tizimi, ruhiy

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6**

kechinmalar orqali ifodalashga urinib, an'anani zamon bilan hamnafas qilishdek murakkab ijodiy yo'lni tanlaganidan dalolatdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Omon Matjonning she'riyati adabiyotshunoslikda nisbatan kam tadqiq qilingan bo'lsa-da, uning poetik olami, estetik tamoyillari, folklor va an'anaga munosabati masalalariga bag'ishlangan ayrim muhim ilmiy manbalar mavjud. Mavzuni o'rganishda avvalo Omon Matjonning o'zi qoldirgan badiiy meros, xususan "Haqqush qichqirig'i", "Odamning soyasi quyoshga tushdi" kabi to'plamlari asosiy manba sifatida e'tiborga olinadi. Ushbu kitoblarda xalq og'zaki ijodidan, diniy-falsafiy tafakkurdan, shuningdek, mumtoz adabiyot an'alaridan keng foydalanilgan bo'lib, ular zamonaviy estetik qarashlar bilan uyg'unlashtirilgan.

Akademik Ibrohim Haqqulov o'zining "Adabiyot va haqiqat" nomli tadqiqotida Omon Matjonni "so'zning ruhi bilan ishlaydigan shoir" deb atab, uning asarlarida timsollar orqali berilgan badiiy-falsafiy qatlamlarni tahlil qilgan. Unga ko'ra, shoir xalq ruhiyatidan, tarixiy xotirasidan, qadimiy rivoyatlardan zamonaviy ruhdagi poetik bayon yaratadi va ayni shu jihati bilan an'ana va yangilik orasidagi estetik ko'priknii bunyod etadi. Filologiya fanlari doktori Gulsanam Qodirova o'zining "Zamon va she'riyat" maqolasida Omon Matjonning poetik tafakkurini XX asr o'zbek she'riyati kontekstida ko'rib chiqib, uning she'rlarida zamonaviy ifoda uslublarining ustuvorligini, badiiy sintez imkoniyatlarini yoritadi. U shoirning "sukunat" va "sadolar", "soya" va "quyosh" timsollari orqali poetik murakkablik yaratishini yangilik belgisi sifatida talqin qiladi.

Shoir ijodidagi folklor motivlari, afsonaviy obrazlar, qadimiy rivoyatlarning talqini masalasida Matluba Azamovanning maqolalari muhim manbalardan hisoblanadi. U "Omon Matjon poetikasida afsona va timsollar" nomli tadqiqotida "Haqqush qichqirig'i" to'plami asosida shoirning xalq og'zaki ijodiga qanday innovatsion yondashganini, an'anani estetik qayta o'zlashtirishda qanday metodlardan foydalanganini tahlil qiladi.

Shuningdek, Shoira Shukurovaning "O'zbek yangi she'riyati: badiiy tafakkur taraqqiyoti" nomli dissertatsiyasida ham Omon Matjon ijodidagi shakl va mazmun yangiliklari, an'anaviy poetik shakllarni zamonaviy ruh bilan uyg'unlashtirish masalalari keng yoritilgan. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlarda Omon Matjon she'riyatining badiiy xususiyatlari, undagi an'anaviy va yangicha ifoda vositalari muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, an'ana va yangilik muammosi shu yo'nalishda alohida tizimli tarzda chuqur tahlil qilingan ishlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-6**

Bugungi adabiyotshunoslikda “an’ana va yangilik” masalasi nazariy va amaliy jihatdan ko‘p muhokama qilinmoqda. Adabiyotshunos olimi Saodat Jo‘rayeva ta’kidlaganidek, “an’ana – bu doimiy takror emas, balki doimiy yangilanishlar ichra o‘zligini saqlab qolishdir”. Omon Matjon ijodi esa ayni mana shu o‘zligini yo‘qotmagan yangilanishning yorqin namunasi sifatida ko‘riladi. Maqolada shoir she’riyatidagi bu ikki qutb – an’ana va yangilik qanday uyg‘unlashgani, ular orasidagi chegaralar qanday badiiy yo‘sinda yondashilganiga e’tibor qaratiladi.

